

## **GROWTH OF LEGAL KNOWLEDGE IS A GUARANTEE OF PERSONAL INDEPENDENCE!**

**To'raqulova Madina Ixtiyor qizi**

A student of Navoiy Law College

**Annotation:** This thesis emphasizes the need to study legal knowledge in order to form a legal consciousness in order to protect one's dignity and personal inviolability, to prevent violence and threats against oneself or other persons.

**Keywords:** Constitution, violence, psychological violence, physical violence, sexual violence, virtual violence, legal awareness.

## **HUQUQIY BILIMLARNING O'SISHI- INSON SHAXSIY DAXLSIZLIGI GAROVI!**

**To'raqulova Madina Ixtiyor qizi**

Navoiy viloyati yuridik texnikum o'quvchisi

**Annotatsiya:** ushbu tezisda inson o`z sha`ni va shaxsiy daxlsizligini himoya qilishda huquqiy ongni shakllantirish o`ziga yoki boshqa shaxslarga nisbatan zo`ravonlik va tahdidli holatlarni oldini olish maqsadida huquqiy bilimlarni o`rganish lozimligi haqida yoritilgan.

**Аннотация:** Этот тезис подчеркивает необходимость изучения юридических знаний с целью формирования правового сознания в целях защиты собственного достоинства и личной неприкосновенности, предотвращения насилия и угроз в отношении себя или других лиц.

**Kalit so`zlar:** Konstitutsiya, zo`ravonlik, psixologik zo`ravonlik, jismoniy zo`ravonlik, jinsiy zo`ravonlik, virtual zo`ravonlik, huquqiy ong.

**Ключевые слова:** Конституция, насилие, психологическое насилие, физическое насилие, сексуальное насилие, виртуальное насилие, правосознание.

Bugun insonning fikrlash dunyosi, ongi davrimizning harqanday o`zgarishlaridan ham, kattaroq o`lchamlarda, tez sur`atlarda rivojlanib boryapti. Bu esa o`z navbatida ham ijobiy ham salbiy o`zgarishlarga olib kelmoqda. Xususan,

necha asrlardan buyon inson shaxsiga nisbatan zo'ravonlik- tazyiqlarga qarshi kurash olib borilayotgan bo`lsa hamki, zamonga bir nazar tashlasak har xil turdag'i tazyiq turlari ortib borayotganligini guvohi bo`lamiz. O`z-o`zidan shu savol tug'iladiki, kimlar asosan zo'ravonlik qurboni bo`lishmoqda? Albatta o`z haq-huquqini bilmaydigan insonlar. Bolalikda bu tushunarli, lekin mакtab davridan boshlab bolalarga o`z-o`zini himoya qilish bo`yicha, zo'ravonlik ko`rsatilayotganda kimga, qayerga murojaat qilish kerakligi tushuntiriladi-ku? Menimcha yoshlar zo'ravonlik o`zi nima, qanday shaxsiy huquq va burchlarimiz borligi, qonun bilan himoya qilinganligi haqidagi bilimlarni kengaytirib, konstitusion ongi shakllantirsak, zo'ravonlik-o`z o`zini himoya qilish, aldanib qolmaslik va boshqa ko`plab muammolar kamayib yechim topiladi. Zo'ravonlik- bu o`z mavqeい va imkoniyatlarini suiiste'mol qilgan holda qasddan o'ziga va boshqa shaxsga yoki bir guruh shaxslarga qaratilgan, jismoniy kuch ishlatish, shuningdek, ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tahdid shaklidir.

Ta'sir xususiyatiga ko'ra zo'ravonlik harakatlarini:

- ✓ *jismoniy;*
- ✓ *psixologik;*
- ✓ *iqtisodiy;*
- ✓ *virtual zo'ravonlik*
- ✓ *Jinsiy zo'ravonlik* va boshqa ko'rinishlarida paydo bo'lishini ajratishimiz mumkin.

O`zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksini 103-moddasiga asosan- Shaxsnı qo`rkitish, unga rahimsiz muomala qilish yoki uning sh`ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o`zini o`zi o`ldirish darajasiga yoki o`zini o`zi o`ldirishiga suiqasd qilish darajasiga yetkazish, -uch yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Bunday jinoyat turi jismoniy zo'ravonlikga kiradi.

Jinsiy zo`ravonlikga misol qilib O`zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksini IV bob 118-moddasiga asoslanib nomusga tegish, ya`ni zo`rlik ishlatib, qo`rqitib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib jinsiy aloqa qilish - uch yildan yeti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida VII bob 27-moddasida Har kim o`z sha`ni va obro`siga qilingan tajovuzlardan shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hechkim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o`tkazishi yoki uni ko`zdan kechirishi yozishmalar va telefonda so`zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas<sup>1</sup>.

Ta`lim muassasasida o`quvchilar, millati, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, dini, nogironligi, rivojlanish yoki xulq-atvori xususiyatlari, kasalligi yoki boshqa xususiyatlariga qarab shaxsga nisbatan kamsituvchi munosabatni o`z ichiga olgan holatga duch kelishlari mumkin. Haqoratlari va kamsituvchi bayonotlar, izohlar, hazillar, laqablar va ism-shariflar, o`yinlar va mashg`ulotlardan chetlatish, shuningdek, noaniq, tengsiz munosabat orqali aniq va ochiq ifoda etiluvchi tazyiqlarda Konstitutsiyamizda belgilab qo`yilgan 44-moddada “Har bir shaxsga o`z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g`ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi<sup>2</sup>.”

O`zini himoya qila olmaydigan shaxsga qarshi bir kishi yoki bir guruuh odamlar tomonidan turli xil zo`ravonlik va tazyiq harakatlari sodir qilinganda - Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg`iz keksalarning huquqlari davlat himoyasida O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida keltirib o`tilgan .

---

<sup>1</sup> O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O`ZBEKISTON”-NMIU, 2016. 11-bet.

<sup>2</sup> O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O`ZBEKISTON”-NMIU, 2016. 16-bet.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bezorilik uyalil telefonlar, elektron pochta, internet, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, chatlar yordamida odamni bezovta qilish, u haqida maxfiy ma'lumotlarni tarqatish, g'iybat, tuhmat va haqoratli xabarlarni tarqatish asnosida amalga oshiriladigan tazyiqli holatlarda vaziyatni hal qila olmaslik bilan inson ruhiyatida tushkunlikka tushish, qo'rquvlar paydo bo'ladi. Aynan xalqning fuqarolarning aziyat chekmasligi uchun zo'ravonliklar bo'lmasligi uchun Konstitutsiyada -qat`iy qonunlar belgilab qo'yilgan. Konstitusiyani bilish yosh avlodni huquqiy ongi tafakkuri, hamda madaniyatini tarbiyalash bu o'z shaxsiy manfaatlarini va xavfsizligi uchun poydevordir. Inson o`zini Konstitutsiyasini, haq-huquqini bilmasa o`rganmasa u insonni jamiyatda o`rni bo`lmaydi, tazyiqlar ostida qolib ketadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'ZBEKISTON"-NMIU, 2016.  
16-bet
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.